

UO'K 37.026.9:159.928.235

TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA ENG YAXSHI XORIJIY TAJRIBALAR MOHIYATI

Tuychiyev Adxamjon Tuhtaboyevich

Namangan Impuls tibbiyot instituti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0009-0000-4699-1688>

E-mail: adham.tuychiev@gmail.com

Annotatsiya. Xorijiy tajribalar va ishlanmalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashda G'arb va Sharq madaniyati, Finlandiya tajribasi, Suqrot usuli yoki o'quv tarbiyaviy debatlardan foydalanish talabalarning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini (bag'rikenglik, sezgirlik, xushyorlik, o'zgalarning fikriga hurmat) rivojlantirishga yordam beradi. Bu kabi yondashuvlar talabalarga ingliz tili darslarida ularning avval egallagan bilim va tajribasiga boyitish va moslashuvchanlikni qo'shib, voqelikni to'g'ri idrok etishning ko'plab usullari mavjudligidan xabardor qiladi. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashda G'arb va Sharq madaniyati o'rtasidagi tafovutlar, bu borada Finlandiya tajribasi hamda yuqorida keltirilgan usullar yoki tajribalarni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik, xakaton, sun'iy aql, madaniyatlar, savol-javoblar.

THE ESSENCE OF THE BEST FOREIGN PRACTICES IN DEVELOPING CRITICAL THINKING

Abstract. Analysis of foreign experiences and practices shows that using Western and Eastern cultures, the Finnish experience, the Socratic method, or educational debates in critical thinking helps to develop socially significant virtues in students (tolerance, sensitivity, mindfulness, respect for the opinions of others). Such approaches inform students about the existence of practical methods of correctly perceiving reality, adding to their prior knowledge and experience in English lessons, and adding coherence. This article examines the differences between Western and Eastern cultures in critical thinking, the Finnish experience in this regard, and the methods or experiences mentioned above.

Keywords: critical thinking, media literacy, hackathon, artificial intelligence, cultures, questions and answers.

СУТЬ ЛУЧШЕГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. Анализ зарубежного опыта и практик показывает, что использование западной и восточной культур, финского опыта, сократовского метода или образовательных дебатов в развитии критического мышления способствует

формированию у учащихся социально значимых добродетелей (толерантность, чуткость, внимательность, уважение к мнению других). Такие подходы знакомят учащихся с существованием практических методов правильного восприятия реальности, дополняя их имеющиеся знания и опыт, полученные на уроках английского языка, и повышая связность изложения. В данной статье рассматриваются различия между западной и восточной культурами в развитии критического мышления, финский опыт в этой области, а также упомянутые выше методы и опыт.

Ключевые слова: критическое мышление, медиаграмотность, хакатон, искусственный интеллект, культуры, вопросы и ответы.

KIRISH

Bugungi kunga kelib raqamli inqilob bizning shaxsiy va professional hayotimizga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pchilik sun'iy aql atamasini eshitganda, birinchi navbatda ko'z oldiga ChatGPT kabi neyrotarmoqlar yoki robotlar keladi. Ammo bu kabi platformalar sun'iy aqlning kichik bir ko'rinishi hisoblanadi. Sun'iy aqlning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Texnologiyalar rivojlanib borgan sari sun'iy aqlni belgilaydigan oldingi ko'rsatkichlar eskirib bormoqda va uning qudrati kuchaymoqda. Sun'iy aql ijtimoiy hayotimizni to'la egallamagan bo'lsa-da, kundalik turmushimizda faol ishtirok etmoqda. Misol uchun, Google eng kop izlangan buyruqlarni eslab qolish va tavsiya qilish imkoniga ega. Shu kabi ulkan ma'lumotlarni yig'ayotgan korporatsiyalar ularni qayta tahlil qilish orqali siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga faol aralashmoqdalar [9].

Biroq, sun'iy aql algoritmlarining takomillashib borishi yaqin yillarda aqliy mehnat ishchilarini ofislardan siqib chiqarishi mumkin. Bunday misli ko'rilmagan taraqqiyot dunyosida kim va qanday qilib ijobiy o'zgarishlar qilishi va muvaffaqiyatga erishishi mumkin? Albatta insonlar.

Odamlarda tanqidiy fikrlash borasida ajoyib va betakror iqtidor va qobiliyat borki, ular bizga narsalarga qarash va ularni xolisona tahlil qilish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash orqali biz narsalarni haqiqiy qiymatda qabul qilishdan bosh tortamiz va har qanday narsani haqiqat, deb xulosa qilishdan oldin uni o'rganamiz va sinab ko'ramiz. Bu har qanday obyekt haqida ilk tasavvurlarimizdan tashqariga chiqishga va oqilona, xolis mulohazalar shakllantirishga yordam beradi. Shu o'rinda,

ingliz tili mashg'ulotlarida o'qituvchilarning tegishli usullarni o'z o'rnida qo'llay bilishi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini kafolatlashi shubhasiz. Til o'qitish amaliyotida innovatsion texnologiyalar, faol va interfaol usul va texnikalarning ahamiyatiga alohida urg'u berish muhimdir.

METOD VA MUHOKAMALAR

Ingliz tili o'qituvchisi sifatida biz ingliz tili darslarining aksariyati ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishga qaratilmaganiga va natijada ko'pchilik talabalarimiz tilni o'rganishda oqsayotganligini hamda uni amalda qo'llay olmayotganligini aniqladik. Bunda biz talabalarga tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishga yordam berish uchun asosiy qadriyatlarga tayanadigan tuzilmalarni ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik. Bular til o'rganuvchilarning tanqidiy tafakkur rivojiga o'zbekcha (milliy) fikrlash qobiliyatining ta'sirini namoyish etishda turli madaniy tafakkur xususiyatlari yuzaga kelishiga olib keladi. Xorijiy tajribalarga yondashgan holda tanqidiy fikrlashning tarbiyaviy konsepsiyasi sifatida madaniyatlar (Sharq va G'arb)ga asoslangan ko'rsatmalarni o'rgandik va ularni tahlil qilib chiqdik [5].

So'nggi yillarda o'qituvchilar til o'rgatishda tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni o'z ichiga olishi kerakligini anglab yetmoqdalar. Biroq, passiv o'rganish bilan shug'ullanadigan talabalar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – darsdagi eng qiyin vazifalardan biri deb hisoblaydilar. Pedagoglarning fikricha, turli madaniyatlar o'rtasidagi fikrlash xususiyatlaridagi farqlarni tushunish talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Agar o'qituvchilar til darslarida talabalarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishni istasalar, ular madaniyatga asoslangan bilimlarni o'rgatishlari va yangi o'qitish usullarini qo'llashlari kerak.

Bir so'z bilan aytganda, til darsi talabalarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishga yordam berish uchun tashkil etilishi kerak. Madaniy tafovutlar haqidagi asosiy tushunchadan tortib, aqliy hujumga qadar, madaniyatlardagi turlicha xulq-atvor talabalarga tanqidiy fikrlash bilan bog'liq madaniy farqlarni va yaxshi tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi to'siqlarni anglab olishga imkon beradi. Talabalar o'qish va tinglashda texnika va strategiyalarni qo'llashdan

tortib, o'zlarining tanqidiy yozish va nutqlarini ishlab chiqishgacha tanqidiy fikrlash bo'yicha qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Turli fanlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga taalluqli nazariyalarga hissa qo'shigani uchun, ushbu fanlardan tanqidiy fikrlashning barcha bosqichlarini izchil, keng qamrovli, kuchli birlik sifatida birlashtirish uchun konseptual asos bo'lishi lozim.

Madaniyat tizimlarining kelib chiqishi va rivojlanishi har xil bo'lganligi sababli, Sharq va G'arb madaniyatlari turli xil madaniy xususiyatlarni namoyon qiladi, bu ularning tafakkur xususiyatlaridagi farqlarga bog'liq. Misol uchun, g'arbliklar sarguzasht va chaqiruvlarga moyil bo'lsalar, sharqliklar ancha hushyor, ehtiyotkor va barqaror; individualistik g'arbliklar madaniyatida "Men" o'ziga xosligi bilan ustunlik qilsa, jamoaviy sharqliklar madaniyatida esa "Biz" o'ziga xosligi bilan ajralib turadi; quyi kontekstli madaniyatga mansub g'arbliklar ko'pincha haddan tashqari ko'pgap, keskin yoki qat'iyatli insonlar sifatida qabul qilinsa, yuqori kontekstli sharqliklar esa bosiq, sabr-toqat va rahm-shafqatni muhim deb qabul qiladi.

Darhaqiqat, bu madaniy o'lchamlar yaxshi tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan turli yo'llar bilan fikrlash qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sharq va G'arb madaniyatlarini bir-biridan farqlovchi o'lchamlarni amaliy tushunish, madaniy o'lchamlarning fikrlash xususiyatlariga qanday ta'sir qilishini bilish nafaqat etnosentrizm (etnik ustunlik)ni qisqartirishga hamda g'arbliklarning fikrlash modelini bir oz chalkash, ammo anchayin tushunarli bo'lishiga yordam beradi, balki tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda tanqidiy fikrlashga oid dunyo tajribasida o'ziga xos salobatli o'ringa ega bo'lgan navbatdagi hodisa – Suqrot metodi yoki dialogi deb nomlanadi. Bu methodsiz tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni tasavvur qilish bir oz mushkul. Miloddan avvalgi IV asrda yashab, ijod qilgan qadimgi yunon idealist faylasufi Suqrot pedagogikada dialoglardan foydalangan. Shu boisdan uni bejizga dialoglar ustasi deb atashmagan. Dialog – deydi u, o'ziga xos "laboratoriya", jonlantirilgan qidiruv maydoni; muloqot jarayonida haqiqatni birgalikda izlab topish faqatgina ikki kishining birgalikda ishtiroki orqali sodir bo'ladi.

Bu usulning bugungi kungacha qo'llanilishining 3 ta asosiy sababi bor.

- Tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.
- Talabalarni tez fikrlashga tayyorlaydi.
- Talabalarni tayyorgarlikka va diqqatli bo'lishga majbur qiladi.

Suqrot metodi (savol-javob metodi) – bu o'rganish va o'rgatishga qaratilgan yondashuv bo'lib, u insonni *tanqidiy fikrlash* qobiliyatlarini rivojlantirishga va mustaqil o'rganishga olib keladigan analitik munozaraga kirishishga undaydi. Ushbu metodning shakli g'oyalarni kashf qilish, taxminlarni ochish va murakkab tushunchalarni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu turdagi savol-javob, odatda asosiy tushunchalar, tamoyillar, nazariyalar yoki muammolarga qaratilgan bo'ladi. Suqrotiy savollar berish texnikasi bir necha savol turlarini o'z ichiga oladi. Richard Pol o'quv manbasi sifatida tilga olinadigan Suqrotiy savollarning olti turini belgilaydi. (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Suqrotiy savol turlari va ularga misollar

Savollar turlari	Misollar
Aniqlashtiruvchi savollar	What do you mean by ___? Could you rephrase your point? Why do you say that?
Savolga savol berish	Is answering this question useful? Do we properly understand the question? How could we resolve this question?
Taxmin talab qiluvchi savollar	What being assumed? Is that assumption sound? Could the assumption be different?
Isbot yoki dalil talab qiluvchi savollar	How do you know? What is the quality of the evidence? Are there any reasons to doubt that?
Manbalar yoki kelib chiqishi haqida savollar	How might other people approach it? What is an alternative view?

	Have all the alternatives been considered?
Sabab-oqibat savollari	What is the result? What does that imply? If ... is true, how does it affect ...?

Bu turdagi savollar vaziyatga turli rakurslardan qarash va xulosa qilish imkonini beradi. Qolaversa, bu usuldan foydalanish talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va o'rganilayotgan mavzuga nisbatan egalik hissini shakllantiradi.

Amerikalik mutaxassis Jensenga ko'ra, chet tili darslarida Suqrot metodi chet tilini o'rganuvchilarga foydalidir, chunki bu ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Suqrotning ushbu texnikasi odamlar o'rtasidagi har qanday og'zaki muloqotda qo'llaniladi: suhbatlar, nizolar, munozaralar, muhokamalar va boshqalar. Uning yordamida siz ayblovlar, tanbehlar, haqoratlarni samarali bartaraf etishingiz, shuningdek, har qanday psixologik bosimga qarshi tura olishingiz mumkin.

Ta'limda tanqidiy fikrlash borasidagi xorijiy tajribalar haqida so'z borganda, Finlandiya tajribasini alohida ta'kidlab o'tish juda ham muhim. 2022-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Baxt Hisoboti (The World Happiness Report) da keltirilishicha, Finlandiya to'rtinchi marta dunyodagi eng baxtli va farovon davlat deb topilgan. 2023, 2024, 2025-yillarda ham eng baxtli mamlakat sifatida tan olindi. So'nggi 20 yil davomida Finlandiya ta'lim tizimi eng yaxshilaridan biri sifatida baholanmoqda, masalan, PISA dasturi doirasida talabalarning ta'lim yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro reytingida yuqori o'rinlarni band etib kelmoqda. Oxirgi vaqtlarda tez-tez jaranglayotgan Finlandiya ta'limining muvaffaqiyat siri nimada? Ta'lim darajasi va baxt darajasi bir biri bilan qanday bog'liq? Ushbu mamlakatda ta'limni yaxshilash uchun qanday islohotlar amalga oshirilmoqda va aholini qanday qilib aqlli va baxtli qilish mumkin?

O'tgan asrning 70-yillarida Finlandiyada ta'lim islohoti amalga oshirildi. Hozirda hamma teng huquqli mamlakatda tahsil oladi. Xususiyl maktablar yoki iqtidorli o'quvchilar maktablari deyarli yo'q, davlat maktablari avtonom tarzda

ishlaydi: ta'limni qanday olib borishni o'qituvchilarning o'zi hal qiladi. Maktablarning reytinglari yoki ularda testlar va muntazam tekshiruvlar yo'q. O'qituvchilarning o'zlari uchun malaka oshirish dasturi jiddiy: masalan, o'qituvchilar ta'limiga akademik va kompyuter savodxonligi kiradi.

Finlar "umrbod ta'lim yoki uzluksiz ta'lim" tendensiyasining ahamiyatini tushunadilar, shu sababli doimiy ravishda o'z malakalarini oshirib boradilar. Finlandiyada ofislar soat 16:00 dan keyin ishlamaydi, shuning uchun xodimlarning rivojlanish uchun vaqti bor. Mamlakatda xatto xodimlarni tayyorlashni tartibga soluvchi qonun ham mavjud. Agar kompaniyada kamida 20 kishi ishlayotgan bo'lsa, menejerlar ularni o'qitish uchun yillik rejani taqdim etishlari shart. Kattalar ta'limida *soft skills*, yumshoq ko'nikmalarga alohida e'tibor beriladi. Masalan, ular tanqidiy fikrlash hamda hissiy intellektni chuqur o'rganadilar. Ish beruvchilarning ta'kidlashicha, bugungi kunda mehnat bozoriga kirib kelayotgan bitiruvchilar yumshoq ko'nikmalarga unchalik ega emaslar va ular endi ishga qabul qilishda ushbu ko'nikmalarga ega nomzodlarni qidirmoqdalar.

Butun tizim har qanday ma'lumotni tekshirish va filtrlash zarurati asosida qurilgan. Zero, axborot odamlarga ta'sir o'tkazish mumkin bo'lgan vositadir. Tanqidiy fikrlashni talabalarga barcha fanlardan o'rgatiladi.

O'qituvchilar talabalarga berilgan axborot haqida ko'p savollar berishga o'rgatadi: masalan, *uni kim yaratgan; qayerda e'lon qilingan; bu aslida nimani anglatadi; xabarning maqsadi nima; da'volar nimaga asoslangan; bu faktmi yoki kimningdir hukmi; ma'lumotlar qandaydir tarzda tekshirilganmi* va shunga oxshash savollar.

Bundan tashqari, ta'limda yuqori sifatga erishishdagi eng muhim omil – bu 2004 yilda Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan keskin islohotlar: o'qish vaqtini qisqartirish, o'qishni tashlab ketish darajasini pasaytirish, 1-bosqichda bakalavriat maqomini mustahkamlash; 2-bosqichda aniqroq professional tarmoqlanish, ya'ni politexnika oliy o'quv yurtlarida magistratura dasturlari; barcha darajadagi o'quv dasturlari mazmunini mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yangilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Islohotlarning milliy maqsadlari bilan bir qatorda

OTMlari islohot jarayonida o'quv dasturlari va o'quv jarayoni mazmunini yangilash, o'qitish sifatini oshirish bilan bog'liq o'z maqsadlarini ilgari surdilar .

2004 yildagi Finlandiya hukumati tomonidan shakllantirilgan Oliy ta'lim to'g'risidagi qonunga muvofiq islohotning maqsadlari jadvalda aks ettirilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

2004 yildagi Finlandiya hukumati tomonidan Oliy ta'lim to'g'risidagi qonunga muvofiq islohot maqsadlari

Milliy darajadagi oliy ta'lim muammolari (Ta'lim vazirligi, 2002)	Taklif etilgan chora-tadbirlar (Ta'lim vazirligi, 2002)	Oliy ta'limni isloh qilishning vazifalari (Ta'lim vazirligi takliflari, 2004)
O'qish muddatini uzaytirish va o'qishni tark etishning yuqori darajasi	– shaxsiy o'quv rejalarni qabul qilish – oquv jarayonining monitoringi – ECTS kreditlari	– mashg'ulot vaqtini qisqartirish; – ta'limni tark etish darajasini pasaytirish; – OTMlardagi o'rinlarni yanada samarali to'ldirish
Darajalarning keng ro'yxati	– oliy ta'lim bosqichlarini isloh qilish – bakalavriat maqomini mustahkamlash	– ilmiy daraja olish uchun zarur bo'lgan o'quv dasturlari mazmunini yangilash; – darajalarning xalqaro miqyos-da tan olinishini yaxshilash
Safarbarlikning quyi darajasi	– oliy ta'limning ikki bosqichli tizimi – ECTS kreditlari	– safarbarlikni oshirish

		– chet ellik talabalarni jalb qilish-ni osonlashtirish
Mehnat bozoridagi ehtiyojning o'zgaruvchanligi va unga javob berish zarurati	– ta'lim jarayonini rejalashtirish sohasida ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish – bakalavr darajasini mehnat bozori ehtiyojlariga yaxshiroq moslashtirish	– ish beruvchilar ehtiyojlariga javob beradigan kompetensiyalar konsepsiyasini ishlab chiqish
Innovatsiyalar va raqobat-bardoshlikni rivojlantirish masalalari	– xalqaro magistratura dasturlari; – tadqiqotchilarni tayyorlashni takomillashtirish	- OTMlarning raqobatbardosh-ligi

Mazkur islohotlarni tashkiliy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan oliy ta'limning ikki bosqichli tizimi sifatini oshirish milliy ustuvorlik miqyosida amalga oshirildi. Shu bilan birga, islohot jarayonida oliy o'quv yurtlarining avtonomligi tamoyiliga rioya qilinib, yuzaga kelgan nizo va muammolar vazirlik va oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi muloqot orqali tartibga solindi. 2004-2009 yillarda Ta'lim vazirligi ta'lim dasturlarini yangilash, universitet ta'limida pedagogik mahoratni rivojlantirishga qaratilgan qator loyihalarni amalga oshirish tashabbusi bilan chiqdi: shaxsiy o'quv rejalarni joriy etish, o'quv kurslarining miqdoriy parametrlarini aniqlash, ta'limga yo'naltirish va o'quv kurslari mazmunini tahlil qilish kabilar.

NATIJALAR

Bugungi kunga kelib, oliy ta'limda qilingan ko'p yillik islohotlar natijasida Finlandiya jahonda o'z o'rnini topishga va 30 ga yaqin universitetlari top-1000 talik oliy ta'lim muassasalari qatoriga kirishga ulgurdi. Turku universiteti Sheyn Xorn va Kun Veermans tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlardan birida Finlandiya

maktablari o'quvchilarining tanqidiy fikrlashi Amerika litsey o'quvchilari bilan solishtirildi. Tadqiqotchilar o'quvchilarning axborot manbalariga qanchalik tanqidiy yondashayotgani va yangiliklarga bo'lgan faktlarning ishonchligini organishdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Fin o'smirlari amerikalik tengdoshlariga qaraganda axborotni qayta ishlashda tanqidiy nuqtai nazardan kuchliroq yondashishi ma'lum bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki, Finlandiya maktablarida o'smirlarga haqiqatan ham ko'proq tanqidiy fikrlashni o'rgatadilar. Olimlar o'qituvchilarga barcha fanlardan tanqidiy fikrlashni o'rgatishni tavsiya qiladi. Ular tanqidiy fikrlash biz yashayotgan raqamli dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini yana bir bor ta'kidlaydilar.

Misol uchun, ona tili va adabiyoti, chet til (ingliz, fransuz, shved) darslari doirasidagi media-ta'limning maqsadi – axborotni izlash va uzatish, axborotni tanqidiy idrok etish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, turli axborot vositalaridan foydalangan holda o'z media matnlarini yaratish, undan muloqot vositasi sifatida foydalanish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Matematika bo'yicha mediasavodxonlik jadvallar, diagrammalar, geometrik shakllarni tushunish, yaratish, mantiqiy fikrlash va tahlil qilishga qaratilgan. Tarix fani doirasida axborotni izlash va ularni tanqidiy tahlil qilish uchun turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, ijtimoiy fanlarda axborotni izlash, o'z fikrini shakllantirish va uni himoya qilish, tasviriy san'at darslarida ta'lim oluvchilarga tasvirni soxtalashtirish – mediasavodxonlikning maqsadini tashkil qiladi.

Mafkuraviy xatarlar, informatsion xurujlar kundan kun kuchayib borayotgan davrda ularni oldini olish, bartaraf etish va qarshi turish uchun Fin ta'lim dargohlarida yolg'on ma'lumotlarning uch turiga e'tibor qaratiladi: *noto'g'ri ma'lumotlar* (misinformation), *mish-mishlar* (malinformation) va *chalgituvchi yolg'onlar* (disinformation).

Bundan tashqari, Finlandiya Madaniyat vazirligi tomonidan qisman moliyalashtiriladigan Mediametka jamoat tashkiloti 1950-yillarning boshidan buyon mediasavodxonlik bo'yicha materiallarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bugungi kunga kelib, Mediametka bosh direktori Meri Seystolaning so'zlariga ko'ra, tashkilot universitetlar, maktablar va yoshlar guruhlari uchun "maqsadli materiallar"

kontentini yaratish maqsadida Finlandiya startaplari va xakaton (xakerlar forumi)lar o'tkazmoqda. "Biz tasvirlar, videolar, matnlar, raqamli kontent bilan ishlaymiz, talabalarimizni o'z shaxsiy kontentlarini yaratishni rag'batlantiramiz. Biz ulardan yolg'on xabarlarni tashviqotdan klikbeytgacha, satiradan fitna nazariyasigacha, soxta fandan yashirin hisobotlargacha, mavjud bo'lmagan voqealarni tasvirleydigan materiallardan tortib, ko'zda tutilmagan xatolarga qadar aniqlashlarini so'raymiz", - deydi Meri Seystola.

Finlandiya muvaffaqiyatini bitta omil yordamida tushuntirish mumkin emas, chunki bir-biri bilan juda bog'liq bo'lgan omillar tarmog'i mavjud. Fin xalqining asosiy qadriyatlari Finlandiyada ta'lim muvaffaqiyatining muhim qismidir.

Finlandiya ta'lim tizimini batafsil tahlil qilish orqali ko'plab xulosalar ishlab chiqish mumkin. Ulardan ba'zilari quyidagilar:

- har qanday ta'lim islohoti uzoq muddatli siyosatni talab qiladi;
- tenglik va hamkorlik Finlandiya ta'lim tizimini hamjihatlikda ishlashga majbur qiladi;
- o'qituvchilarning salohiyati eng muhim omil va bu boshqa ko'plab omillar bilan, masalan, o'qituvchilarni tayyorlash ta'lim sifati, o'qituvchilik kasbining jamiyatdagi obro'si va o'qituvchilarning mehnat sharoitlari bilan bog'liq;

XULOSA

Tanqidiy fikrlash muammosiga bag'ishlangan xorijiy tajribalarni tahlil qilish ushbu hodisaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati va uni ta'limda rivojlantirish ustuvorligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Xorijiy adabiyotlarda "tanqidiy fikrlash" tushunchasini talqin qilish – ushbu hodisaning ikki tomonlamali xususiyati mavjudligi sabab unga bo'lgan yagona yondashuv aniqlanmagan, bu esa o'rganilayotgan masalani tahlil qilish jarayonini murakkablashtiradi.

Chet ellik psixologlar inson aqlining xususiyatini katta hajmdagi bilimlarni qamrab olish nuqtai nazaridan emas, balki ushbu bilimda muhim bo'lgan narsani ajratib olish qobiliyati nuqtai nazaridan ta'kidlashadi. Shubhasiz, talabalarning tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishda muammolarni hal qilish qobiliyati muhim rol o'ynaydi, chunki ma'lumotni "hazm qilish" jarayonida faol fikrlash jarayoni shunday sodir boladi. Shu nuqtai nazardan, insonning tanqidiy fikrlashi va

his-tuyg'ulari bir-birini to'ldiradi. Bizning fikrimizcha, to'g'ri xulosaga kelishga aynan his-tuyg'ular yordam beradi. Ammo uning shakllanishi uchun insonning axborot oqimi bilan shaxsiy aloqasi zarur bo'lib, u mustaqil ravishda qayta ishlanadi va jamiyatda amalda qo'llanadi.

Bizning fikrimizcha, tanqidiy fikrlashning mazmuni eng munozarali masaladir, chunki har bir muallif "tanqidiy fikrlash" tushunchasini o'z qarashlari va tushunchasi bilan to'ldiradi. Zero, fikrlash turi, mulohazalar, intellektual jarayon, shaxsiy sifat, mahorat va qaror qabul qilish kabi masalalar ilm-fanning qaysi pozitsiyasidan kelib chiqib o'rganilayotganiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Phung, Thanh Ha. (2010). A Pilot Comprehensive Critical Thinking Education Framework in TESOL. In Azadeh Shafaei(eds.), *Frontiers of Language and Teaching: Proceedings of the 2010 International Online Language Conference (IOLC 2010)*. Florida: Universal Publishers. 86, 2010.
2. Paul, Richard, *Critical Thinking: How to Prepare Students for a Rapidly Changing World*, 1993. "Seven Principles". The Johnson Foundation, Post Office Box 547, Racine, WI 53401-0547.
3. Jensen, R.D., Jr. (2015). The Effectiveness of the Socratic Method in Developing Critical Thinking Skills in English Language Learners. Retrieved from <https://lopes.idm.oclc.org/login?url=https://search.ebscohost.com/login.aspx?direct=true&db=eric&AN=ED557162&site=eds-ive&scope=site>.
4. Philpot D. (2010). Soft skills: more important than you think. Retrieved from: [www.cte.unt.edu.http://forum.cte.unt.edu](http://forum.cte.unt.edu).
5. Tuychiev, A. (2022). *TALABALARGA CHET TILLARINI O'QITISHDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI*. *Jizzah*, 139-143.
6. Evaluation of the Bologna process implementation in Finland / Finnish Higher Education Evaluation Council. – Helsinki, 2012. – 216 p.
7. Evaluation of the Bologna process implementation in Finland / Finnish Higher Education Evaluation Council. – http://www.finheec.fi/files/1471/KKA612_Evaluation_Bologna_netiiin.pdf. p.37.
8. Boroushaki, N., & Ng, L. (2016). Critical thinking ability and vocabulary learning strategy use: The case of EFL learners in an ESL Context. *Journal of Language and Translation*, 6 (11), p. 1-15.
9. Тўйчиев, А. (2023). СУҚРОТ МЕТОДИ–ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ ЎРГАТИШНИНГ САМАРАЛИИ УСУЛИ СИФАТИДА. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
10. <https://yle.fi/news/3-10764731>
11. <https://happiness-report.s3.amazonaws.com/2021/WHR+21.pdf>